


## 2022- yilning yanvar-iyunida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 10 782,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,8 % ga yetdi.






2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>9 109,7</b>	<b>10 782,1</b>	<b>104,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 864,8	10 486,2	104,4
mahsulotlarga sof soliqlar	244,9	295,9	108,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>8 864,8</b>	<b>10 486,2</b>	<b>104,4</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>3 987,9</b>	<b>4 399,4</b>	<b>102,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>1 815,6</b>	<b>2 422,2</b>	<b>107,2</b>
sanoat	1 134,8	1 666,4	107,1
qurilish	680,8	755,8	107,4
<b>xizmatlar</b>	<b>3 061,3</b>	<b>3 664,6</b>	<b>105,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	572,6	723,5	112,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	375,9	434,9	110,2
boshqa xizmat tarmoqlari	2 112,8	2 506,2	102,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 432,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur‘atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 42,0 % ni, sanoat tarmog‘i 15,9 % ni, qurilish 7,2 % ni va xizmatlar sohasi 34,9 % ni tashkil qildi.




**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**


	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	2,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>45,0</b>	<b>42,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>20,5</b>	<b>23,1</b>
sanoat	12,8	15,9
qurilish	7,7	7,2
<b>xizmatlar</b>	<b>34,5</b>	<b>34,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,5	6,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,2	4,1
boshqa xizmat tarmoqlari	23,8	23,9

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



2022- yil





● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 42,0 %), sanoatda – 107,1 % (15,9 %), qurilishda – 107,4 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 105,5 % ni (34,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,9 % (6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,2 % (4,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,6 % dan (23,9 %) iborat bo'ldi.

### 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)






## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,9 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,8 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 3,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi

### 2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)





2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 137,1 % va xizmatlar sohasida – 113,5 % qayd etildi.

### 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



### 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 75,5 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 78,3 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

